

BEGZOD XODJAYEV
NILUFAR MATKARIMOVA

**“ABDULLA AVLONIYNING
HAYOTI VA IJODI”NI
O’RGANISH BO‘YICHA
USLUBIY QO‘LLANMA**



74.22
X71

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BEGZOD XODJAYEV
NILUFAR MATKARIMOVA

ABDULLA AVLONIYNING
HAYOTI VA IJODINI
O'RGANISH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA



"IJOD NASHR"
TOSHKENT - 2021

UO'K 821.512.133.09

KBK 83.3 (50')

M 31

M 31 Xodjayev. Begzod, Matkarimova. Nilufar

"Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi"ni o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanma [Matn] / N. Matkarimova. – Toshkent: "Ijod nashr" nashriyoti, 2021. – 64 b.

ISBN 978-9943-6560-3-1

Annotatsiya

Mazkur uslubiy qo'llanma orqali Abdulla Avloniyning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha, mashg'ulot ishlanmalarini ishlab chiqish metodikasi, loyihalash va rejalashtirish, o'rgani-ladigan mavzular bo'yicha interfaol hamda o'quvchilarda tahliiy va refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishga doir assessment topshiriqlari, trening o'tkazish uchun mo'ljallangan mashqlar to'plamini o'zida aks ettirgan.

Qo'llanma doirasida o'rganiladigan mavzulardagi materialarni amaliy o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy yondashuvni talab etadi.

Uslubiy qo'llanmadan o'qituvchilar, magistrantlar va talarbalar foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharir: p.f.d., professor Begzod Xodjayev

**Taqribchilar: p.f.n., professor Anargul Kaldibekova
p.f.d., dotsent Muhayyo Artikova**

ISBN 978-9943-6560-3-1

© N. MATKARIMOVA, 2021

© "IJOD NASHR", 2021

SO'Z BOSHI

Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasiidir", degan so'zlari har bir maktab binosiga yozib qo'yilishi shart

Shavkat MIRZIYOYEV

Milliy o'zlikni shakllantiradigan uchlik – o'tmish, bugun va kelajak hamma davrlarda ham zamonning ziylolilari, xalqning kelajagi uchun qayg'uradigan fido-yilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayni kunda ham bu haqiqatni yanada teran anglash, yangi rivojlanish bosqichida milliy boy tajribadan samarali foydalanimasiga davlat darajasida katta ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: "Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiyligi va boy tarixini o'rghanish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashtimiz lozim. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning beباho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"ligi haqidagi fikrlari buning yorqin isbotidir.

O'zbek pedagogikasiga hissa qo'shgan taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog va olimdir. Tarixda Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogika-

ga “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fanidir”, deb ta’rif berdi. Tabiiy bunday ta’rif Abdulla Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo’lib o’sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo’l uzatmak kabidur”, deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishi-da ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g’oyat katta ahamiyatga ega.

“Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobi ma’rifatparvarlik g’oyalalarini targ’ib qiladi. Abdulla Avloniy kitobda ilm to’g’risida bunday deydi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g’oyat oliv, muqaddas bir fazilatdur. Zeroiki, ilm bizga o’z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko’rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o’tkur qilmoq ...Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...” Abdulla Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, “Bizlarni jaholat, qorong’ilikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug’ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g’ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog’liqdur”. Adibning obrazli ifodasiga ko’ra, ilm bamisolli bodomning ichidagi mag’iz. Uni qo’lga kiritish uchun mehnat qilish, ya’ni chaqib uni po’chog’idan ajratib olish kerak.

U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo’lida

qo'llanmasa, u o'likdir. Abdulla Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Mazkur qo'llanma adibning pedagogik qarashlarini yanada chuqurroq tahlil etilishida hamda adibning hayoti va ijodini o'rghanishda foydalaniladigan manba bo'lib xizmat qilsa ajabmas.

1-§. ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK FAOLIYATI, TA'LIM-TARBIYAGA DOIR QARASHLARI

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimiz ma'naviyatini yanada rivojlantirishda millatimiz tarixini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy, badiiy hamda ilmiy asarlarni alohida o'rganishga e'tibor qaratila boshlandi. Shu o'rinda yurtboshimizning "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liqdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir"¹ deya bugungi kun yoshlarini ta'lif-tarbiyasida ahamiyatli bo'lish joiz bo'lgan ko'plab tomonlar mavjudligi, tarixni anglash, adabiyotga mehr berish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish, jamiyatda o'qituvchi-pedagog maqomini yanada yuksaltirish borasida fikrlar bildirganlar.

Tarixdan ma'lumki, zaminimiz allomalar yurti, bunday zamin, albatta, o'zining madaniy yodgorliklari, beba ho asarlariga boydir. Mazkur madaniy me'ros yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt

¹ Sh.M.Mirziyoyev "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltishning mustahkam poydevoridir" – "Sharq yulduzi" jurnali.

qismidan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab guliston” kabi darslik va o’qish kitoblari ham harakterli bo’lib xizmat qiladi. Shuni inobatga olib, bu asarlarni jiddiy o’qib chiqish va unda ilk darslikka xos tuzilmani, g’oyaviy to’liqliknini, kitoblardagi o’ziga xos xususiyatlarni monografik yo’nalishda o’rganib chiqish zarur.

O’zbekadabiyotshunosligidataniqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning badiiy ijodi, asarlarining o’ziga xos g’oyaviy-badiiy xususiyatlari, shuningdek, uning pedagogik mavzudagi asarlari haqida ba’zi ishlar qilingan, mulohazalar bildirilganligini ko’rish mumkin. Adibning bolalar adabiyotiga qo’shgan hissasi haqida R.Barakayevning “O’zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”² nomli monografiyasi e’lon qilingan. Bu kitobda olim taniqli adibning bolalar adabiyotini yuksaltirish uchun chekkan zahmatlarini birma-bir ko’rsatib o’tgan. Shu bilan birga, Begali Qosimov adib haqida bir adabiy portret bilan bir ilmiy risola e’lon qilgan hamda U.Dolimov bilan hamkorlikda “Sharafli hayot”³ asarini yozgan.

Adibning qizi X.Avlonova “Dadam haqida: (Abdulla Avloniy haqida)”⁴ maqolasini e’lon qilgan. Shuningdek, H.Asimova, A.Bozorov, M.Rahmonov, T.Tursunov, Z.Eshmurodova, D.Qosimov, K.Hoshimov kabi bir qator olimlar ham Abdulla Avloniy haqida maqolalar e’lon qilishgan.

Tohir Malik “Qaldirg’och” qissasida Asadullo Mira’lam deb tanishtirgan qahramon aslida Abdulla

² R.Barakaev. O’zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T. Adabiyot nashriyoti, 1998 y, 134 b

³ Qosimov B, Dolimov U. Sharafli hayot. T., G.G’ulom nashriyoti, 1987 120 b

⁴ X.Avlonova “Dadam haqida. T. O’qituvchi, 1986. 78 b.

Avloniydir. Asarda adibning o'tgan asr boshidagi xalq tafakkurini o'stirishda qo'shgan hissasi, yangi usul mакtablarining ochilishidagi jonbozliklari uning prototipi orqali ifodalangan.

Biroq Abdulla Avloniy aksariyat asarlarda jadid, milliy teatr asoschisi, shoir va mohir yozuvchi sifatida tahlil qilinadi. Adibning pedagogik qarashlari, mohir o'qituvchilik faoliyati hali hamon tadqiq nazaridan tashqarida qolmoqda. Abdulla Avloniyning bu sohadagi asarlarida yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyat-larga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik talqini bayon etilgan S.Nishonova, O.Musurmonova, U.Mahkamov kabi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari shu jihatdan e'tiborga loyiqidir.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Avloniyning siymosi, faoliyati biz uchun qadrnidir.

Mashhur o'zbek ma'rifatparvari, shoiri va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining "Mergancha" mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lgan. Abdulla Avloniy eski usul mакtabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasaga o'qishga kiradi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtarda o'qir edi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan odamlar eshigida mehnat qilgan: g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullangan, "Imoratchi usta" degan nom olgan.

Abdulla Avloniy o'z tarjimayi holida yozishicha: "1885-yildan boshlang'ich mактабда о'qidim. O'qchi mahallada Akromxon domladan xat-savodim chiqdi. 1890-yilda mактабни bitirib, mahalladagi madrasada dars o'qiy boshladim. Yoshim 13ga yetgach, yo'qsullik menga ta'sir qildi. Yoz kunlarida mardikorlik qilib, ota-onamga biroz yordamda bo'lib, qish kunlarida o'qir edim. So'ngra O'qchi mahalladagi domlamizning kam havesaligidan, o'quvda davomsizligidan O'qchi madrasasini tark qilib, 14 yoshimda Shayxantavurdagi Abdulmalikboy dahasiga kelib, Mullo Umar Oxunddan dars o'qiy boshladim. Bu chog'larda ham qish kunlarida o'qib, yoz kunlarida mardikor ishlamoqqa majbur edim".

O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she'rлar yoza boshladi. U 1894-yildan boshlab she'rлar yozishga kirishgan bo'lsa-da, yoshlik davrida yozgan she'rлari bizgacha saqlanmagan. Dastlabki she'rлarida va "Hijron" degan maqolasida xalqni yangi usul mактабларida o'qib-o'rganishga targ'ib qildi. Abdulla Avloniy 1907-yilda "Shuhrat", "Osiyo" nomli yangi gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo'yadi. Abdulla Avloniy keyinroq "Sadoyi Turkiston" (1914-1915), "Turon" (1917), "Ishtirokiyun" (1918) gazetalarida, "Kasabachilik harakati" (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotining zabardast vakili, asoschilaridan biri sifatida taniladi.

Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid mактабини, 1909-yilda "Jamiyatи xayriya" uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917-yillarda matbuotdagi qizg'in faoliyati, ko'plab publisistik maqolalari bilan "bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag'on, ikkinchi yoqdan el orasiga o'zgarish tuxmini

sochg'on" ham Abdulla Avloniy bo'ldi. Abdulla Avloniy o'zi nashr etgan "Shuhrat" (1907) nomli gazetasini faoliyatini shunday baholagan edi.

U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanafusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirshiga alohida e'tibor berdi. Uning "Birinchi muallim" ("Muallimi avval", 1909), "Ikkinchi muallim" ("Muallimi soniy", 1912) nomli darsliklari, "Turkiy Guliston yoxud axloq" (1913), "Gulistoni mакtab" (1917), "Adabiyot yoxud milliy she'rлar" (1909-1916, 6 qism) kabi qo'llanmalari maktablarda o'qitilgan.

Abdulla Avloniy "Turon" (1917) gazetasiga "Yashasin xalq jumhuriyati" degan shiorni tanladi, "Turon" nomli teatr to'garagini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni to'pladi, ayrim rollarni ijro etishda o'zi ham qatnashdi. Shoир Afg'onistonda elchi bo'ldi, turli o'quv yurtlarida dars berdi.

Abdulla Avloniy o'zbek ziyyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylanadirish uchun 1913-yilda "Turon" nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to'siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongingin uyg'onishiga yordam ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabatda bo'lgan bir paytda Abdulla Avloniyning teatr truppasini tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi jasorati edi. Teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi:

“Abdulla Avloniy truppa uchun “Advokatlik oson-mi?”, “Pinak”, “Ikki muhabbat”, “Portug’oliya inqilobi” kabi dramalar yozdi, “Qotili Karima”, “Uy tarbiyasining bir shakli”, “Xiyonatkor oilasi”, “Badbaxt kelin”, “Jaholat”, “O’liklar” kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjon-chadan tarjima qiladi”. Ammo bu asarlar nashr qilinmadı.

1916-yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, “Turon” truppasi bilan birga “Layli va Majnun” spektaklini qo’yadi. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a’zolari bilan Abdulla Avloniy 1914-1916-yillari Farg’ona vodiysida gastrollarda bo’ladi.

Abdulla Avloniy 1917-yilgi to’ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko’zga ko’ringan namoyandalaridan edi. Abdulla Avloniy ilg’or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag’larga dunyoviy ilmlarni o’qitadigan “Usuli jadid”, ya’ni yangicha ilg’or usuldagagi maktablar ochdi va bu maktablarda xalq bolalarini o’qitdilar. Ular o’z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo’lda fidoyilik ko’rsatdilar.

Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagagi maktablar ochdi. Maktablardagi o’quv jihozlarini o’zgartirdi, o’z qo’li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag’al oiladan bo’lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta’minlash maqsadida, do’stlarining ko’magida “Jamiyat xayriya”ni tashkil etadi va bu jamiyatga o’zi raislik qiladi. “Nashriyot” shirkati tuzib, Xadrada “Maktab

kutubxonasi” nomli kitob do‘konini ochdi. Abdulla Avloniyning maktabi o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalariga ko‘ra mashg‘ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o‘z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qilardi. U o‘z mакtabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma’lumotlar beradi.

Abdulla Avloniy 1918-yildan boshlab respublikamizda o‘qituvchilar uyushmasi, qorovullar, tunukachilar, konchilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Sobiq eski shahar ishchi dehqon Sovet Ijroiya Komitetiga rais qilib saylanadi. Abdulla Avloniy Turkiston respublikasi milliy Komissariyatining mas‘ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug‘ullanadi.

1919-1920-yillarda Avloniy Afg‘onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida bosh konsul bo‘lib ishladi. Xalqimiz o‘rtasida birodarlikni mustahkamlash sohasidagi olib borgan ishlari uchun Afg‘oniston shohi Omonullaxon tomonidan kumush soat bilan taqdirlandi. Bular Avloniyning tariximizda o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatadi. 20-yillarda Abdulla Avloniy turli ijtimoiy vazifalar bilan birga muallimlik kasbini ham davom ettirdi, savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. Abdulla Avloniy 1920-yildan boshlab Toshkentda tashkil qilin-gan o‘lka bilim yurtida, so‘ngra xotin-qizlar bilim yurtida mudirlilik qildi. U xalq maorif institutida, turkfront harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 1924-1929-yillarda O‘rta Osiyo davlat universitetida (SAGU) va boshqa oliy o‘quv yurtlarida o‘qituv-chilik qilish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi.

Abdulla Avloniy yangi adabiyot dasturi asosida 1933-yilda o‘zbek maktablarining 7-sinflari uchun

“Adabiyot xrestomatiyasi” tuzdi. Ma’rifatchilik va ijtimoiy mavzu Abdulla Avloniy she’riyatida markaziy o’rin egallaydi. Shoир ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. “Maktab”, “Maorif”, “Ilm”, “Fan” kabi tus-hunchalar shoир she’rlarida eзgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko’tariladi, “Jaholat” va “Nodonlik” esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda o’zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Avloniyning mehnati yuksak taqdirlanib, unga o’zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda, uzoq yillik halol mehnati uchun 1925-yilda “Mehnat qahramoni” unvoni, 1930-yilda mehnatsevarligi, ilmiy ishlari va asarlari uchun “O’zbekiston maorifi zarbdori” unvoni berildi. Abdulla Avloniy 1934-yilning 25-avgustida Toshkentda vafot etdi.

Abdulla Avloniy xalq orasida ilg’or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma’rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g’oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. U 1907-yili “Shuhrat”, “Osiyo” nomli gazetalar chiqarib unga muharrirlik qiladi. Gazetaning birinchi sonida matbuotning roli, gazetaning vazifasi haqida fikr yuritib, “Matbuot har insonga o’z holini ko’rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong’i kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g’oyalarini yoyuvchidir”, deb baliqning suvsiz yashamog’i mumkin bo’lmagani kabi insonning ham ilmsiz yashamog’i mumkin emasligini uqtiradi.

XX asr boshlariда O’zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o’rin egalladi, butun faoliyati davrida u o’z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma’naviyatini shakllantirishga alohida e’tibor berdi.

Asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim"i ham o'ziga xos o'ringa ega.

"Birinchi muallim" 1917-yil to'ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Abdulla Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval"iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Abdulla Avloniyning "Ikkinci muallim" kitobi "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobi ni xrestomatiya deb atasak xato bo'lmas.

Kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi:

*Maktab sizi inson qilur,
Maktab hayot ehson qilur,
Maktab g'ami vayron qilur,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!
Maktabdadur ilm-u kamol,*

*Maktabdadur husn-u jamol,
Maktabdadur milliy xayol,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!*

Bu she'rda Abdulla Avloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

"Turkiy Guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiy-tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni "yaxshi-

likka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi” bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to’rt bo’limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.

4. Axloq tarbiyasi haqida hamda uning ahamiyati to’g’risida fikr yuritadi.

“Tarbiyaning zamoni” bo’limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-onal, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo’lishi avlodlar tarbiyasiga ko’p jihatdan bog’liq, deb hisoblaydi adib.

Tarbiya surriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan: uy, bog’cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birligina axloq bilan chegaralab qo’ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog’ligi haqida g’amxo’rlik qilishi lozimligini uqtiradi.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog’lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo’lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatlari bo’lmog’i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o’qumoq, o’qutmoq, o’rganmoq va o’rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog’lom qilib o’stirishda ota-onalarga murojaat qilsa,

bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi.

U o'tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to'g'ri kelmay-digan ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ulardan nafratlanadi. Abdulla Avloniyning xalqni ma'rifatga tashviq qilganidan dalolat beruvchi misralaridan biri quyidagidir:

*Idrok ila aqling-la ayur yaxshi-yomonni,
Behudaga sarf etma, shu qimmatli zamonni.
Sa'y et, jadal et, ilm-u fununa harakat qil,
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni.*

Abdulla Avloniy o'z ona tilini mukammal bilish, har bir so'zni o'z o'rnida ishlatish, milliy adabiy tilining taraqqiysi uchun jonkuyarlik qilish zarur, deydi.

"Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsaturg'on oynai hayoti: til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdur".

Abdulla Avloniy hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmoq uchun ilm va ma'rifatni egallahimiz kerak degan shiorni o'rtaga tashlaydi.

U 1934-yil 24-avgustda Toshkentda vafot etdi. Abdulla Avloniy ijodi bo'yicha Begali Qosimov ilmiy izlanishlar olib borgan.

2-§. ABDULLA AVLONIYNING O'ZBEK XALQINING MILLIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRGAN ISHLARI

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy ta'lif-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ong-ni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbag'a aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadi-gan mas'uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarining yosh xususiyatini e'tiborga olishi zarur. Ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Ta'lif faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunar-ga berilgan bo'lishni, o'rganishidir". Ma'rifat darg'asi Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida esa pedagogika fanini aniq va tushunarli qilib ta'riflaydi: "Tarbiya "pedago'giya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur... Keyinchalik Abdulla Avloniy "Sadoyi Turkiston", "Turon", "Ishti-rokiyun" gazetalari-

da, "Kasabachilik harakati" jurnalida bosh muharrir bo'lib ishlaydi va shu barobarida o'zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida xalqqa taniladi.

Abdulla Avloniy o'zbek teatrining asoschilaridan biri edi. U 1913-yilda "Turkiston" nomli teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan. "Turkiston" o'zining qat'iy nizomini ham e'lom qilgan edi. Uning tashkilotchisi ham, g'oyaviy-badiiy rahbari ham Abdulla Avloniy edi. Truppa "Zaharli hayot" (Hamza), "Baxtsiz kuyov" (Abdulla Qodiriy) kabi XX asr boshlari o'zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalari ni sahnalashtirgan. Teatr ozarbayjon va tatar dramaturglari asarlari "Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "O'liklar", "Joy ijaraga olgan kishi", "Man o'lmisham", "Layli va Majnun", "Asli va Qaram", "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oila"larni o'zbekchaga tarjima qilib sahnaga qo'ygan. Abdulla Avloniyning o'zi Fayziboy ("Baxtsiz kuyov"), Aliboy ("To'y"), Boy ("Padarkush") rollarini ijro etgan.

U truppa uchun "Advakatlik osonmi?", "Pinak", "Biz va Siz", "Ikki sevgi", "Po'rtugaliya inqilobi" kabi dramalarini yozadi.

Abdulla Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vaykillari I.A.Krilov va L.N.Tolstoyning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan, jumladan, I.A.Krilovning 21ta maysali, "Maymun ila ko'zoynak", "G'ayri jinsiy ittifoq", "It ila yo'lovchi", "Qarg'a ila Zag'izg'on", "Tulki ila Qarg'a" kabi asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, "Maktab guliston" kitobida bosilib chiqqan.

Bu borada J.Sharipov "Maktab guliston" kitobidagi tarjimalarini atroflicha tahlil etib, ularning sifatiga ham yuksak baho beradi. "Abdulla Avloniy asl nusxaning mazmunini, badiiy nafosati, chiroyli obrazlarini to'g'ri talqin qilib, ehtiros bilan tarjima etgan", degan.

Abdulla Avloniyning 1913-yilda “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari bosilib chiqdi. U 1917-yilga kelib ikkinchi marta nashr qilindi, asarda insonlarni “yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilm” - axloq haqida fikr yuritilgan.

U insonga xos xulqni ikkiga - yaxshi va yomonga ajrata-di. “Yaxshi xulqlar” deb nomlangan birinchi qismida u 31 fazilat, “Yomon xulqlar” deb atalgan ikkinchi qismda esa 20 illatga ta’rif beradi. O’z mulohazalarini dalillash uchun Qur’on oyatlari va hadislardan, shuningdek, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Sa’diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini keltiradi. Har bir axloqiy kategoriyaga o’z munosabatini bildirgach, o’sha fikrning mazmunini ifodalovchi bayt yo bior maqol-hikmat ilova qiladi. Abdulla Avloniy “Axloq ulamosi”ning qarashlari asosida insonlarning xulqlarini yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi, bunga ularning nafs tarbiyasini asos qilib oladi. U yaxshi xulqlarga fatonat, nazofat, shijoat, intizom, vijdon, vatanni suymak kabi fazilatlarni kirtscha, g’azab, shahvat, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqning belgilari deb biladi.

Abdulla Avloniyning ma’rifatparvarlik va milliy uyg’onish g’oyalari kuylagan dastlabki she’rlari o’zbek milliy uyg’onish davri adabiyotining hamisha beba bo mulki bo’lib qoladi. U bu turkumga mansub she’rlarida o’zbek mumtoz adabiyotidagi she’riy shakllarni katta ijtimoiy mazmun, ma’rifatparvarlik g’oyalari, hajviy ruh va xalqona ohanglar bilan boyitdi.

3-§. ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Uchinchi Renessansga erishish o'z navbatida, yangi Renessans pedagogikasini yaratishni talab etadi. Bu esa, Milliy uyg'onish pedagogikasi atoqli vakillarining ilmiy-pedagogik, adabiy merosini chuqur o'rganish, innovatsiya va tarixiy tajriba o'rtasidagi vorisiylikni hisobga olishni taqozo etadi. Milliy uyg'onish pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniydir.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda o'zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy ijodiy merosini chuqur o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Abdulla Avloniy bolalar uchun ham bir qancha she'r va masallar yozgan. Shoir bu asarlarida mакtab yoshidagi bolalarning fikr doirasini kengaytirish, ularda maktab va kitobga, mehnatga, tabiatga, Vatanga muhabbat uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan. Uning ko'pgina she'rlari zamirida Vatanni sevish g'oyasi yotadi. Shoir bu she'rlarida Vatanni sodda va samimiy misralarda tasvirlaganki, faqat o'sha 10-yillarning o'rtalaridagina emas, balki bugungi mакtab yoshidagi bolalar ham ulardan katta estetik zavq olishlari mumkin. Darhaqiqat, shoir Vatan ta'rifini boshlab:

*Tog'lаридан конлар чиқар,
Yerларидан доңлар чиқар...
Hавоси о'tа yoqumlik,
Cho'llари bor toshlik, qumlik,
Toshkанд emas, toshqанд erur,
Kесаклари gulqанд erur*

Bu misralar orqali bolalarda ona diyorga katta mehr uyg'otishga erishadi.

Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom” asari ham mavjud. Ushbu asar boshlang‘ich mакtablarning o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Bu asar birinchi marta 1910-yilda Munavvarqori tomonidan Toshkentda Il‘in bosmaxonasida bosilgan. Mustaqillik yillarda esa Zokirxon Afzalov Shokirxon o‘g‘li tomonidan 1994-yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan. Risolada Odam alayhissalomdan Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.gacha o‘tgan payg‘ambarlarning qissalari va zuhuri islom zikr etilgan.

Islom tarixi fanida payg‘ambarlar tarixi, payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ning hayotlari va Islom dini tarixi, shuningdek, ilk xalifalik davri tarixi uch bosqichda o‘rganiladi. Nasiruddin Rabg‘uziyning “Qissayi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlari payg‘ambarlar tarixiga oid bo‘lsa, Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” asari ikkinchi va Rizouddin ibn Faxruddinning “Xulafoi roshidin” asari uchinchi davrni o‘z ichiga oladi. Abdulla Avloniy asari mana shu uch davrni mujassamlashtirgan. Adibning asosiy ko‘zlagan maqsadi millat kelajagi bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich sinfdanoq qisqacha bo‘lsada Islom tarixi bilan tanishtirish, diniy ma‘rifatlarni oshirish, ularning qalblariga iymon nurini singdirish bo‘lgan. Abdulla Avloniyning bu asari tafsinga sazovordir.

U o‘zbek xalqi madaniyati, ma‘rifati bilan bir qatorda qo‘sni afg‘on xalqi ijtimoiy-siyosiy hayotida ham 1919-1920-yillarda muhim rol o‘ynagan.

Abdulla Avloniy asarlar yozish bilan bir qatorda mакtablar ochish, xalqni savodxon qilishi, o‘zbek xotin-qizlarini o‘qitish, o‘qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanadi. U 1923-1924-yillarda eski shahardagi xotin-qizlar va yerlar maorif bilim

yurtlari mudiri, 1924-1929-yillarda Toshkent harbiy mактабида о'qитувчи, 1925-1934-yillarda О'рта Осиyo kommunistik universiteti, О'рта Осиyo qishloq xo'jaligi mактабида, О'рта Осиyo davlat universitetida dars berdi. Pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedrasi professori va mudiri bo'lib ishladi.

U 1933-yilda o'zbek maktablarining 7-sinfi uchun "Adabiyot xristomatiyasi" tuzib, nashr ettirdi. Abdulla Avloniy "Hijron", "Nabil", "Indamas", "Shuhrat", "Surayyo", "Shapaloq", "Chol", "Ab", "Chig'aboy", "Abdulhaq" taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000 misradan ortiq she'r ijod qilgan.

Abdulla Avloniy 1927-yilda "Mehnat qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. 1930-yilda unga "O'zbekiston xalq maorifi zarbdori" faxriy unvoni berildi.

Hozirda yurtimizda Abdulla Avloniy nomidagi bir qator maktablar bor. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bolalar adabiyoti bo'yicha uning nomida mukofot ta'sis etgan. Toshkent ko'chalaridan biri, Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish markazi va mahallalardan biri uning nomida. Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish markazida Abdulla Avloniy muzeyi tashkil qilin-gan. Bularning barchasi pedagogika sohasiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan Abdulla Avloniyning ilmiy-ijodiy yo'lini yanada abadiylashtirish va uni kelajak avlod uchun me'ros sifatida saqlash yo'lidagi sa'y-harakatlarning yorqin na'munasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, jadidlarning asosiy maqsadini "Turkistonni faqat ilm-u ma'rifatgina ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy tanglikdan xalos etadi", degan bosh g'oya tashkil etgan. Ana shu sababli ular o'z g'oyalarini xalq ichida keng targ'ib qilish maqsadida ona tilida ta'lim beradigan yangi usul maktablarini ochishgan, maktablar uchun darsliklar yozishgan, gazeta-jurnallar chop

ettirishgan, teatr truppalarini tashkil etishgan. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiya sohasiga innovatsiyalarni joriy etish yo'lida jonbozlik ko'rsatishgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlarning izdoshi sifatida Abdulla Avloniy jadid ma'rifatchiligini yanada yuqori bosqichga ko'tarish, ilmiy pedagogikani milliy ta'lim-tarbiya qonuniyatları va tamoyillari bilan boyitish, ta'limning xalqchilligi va ommaviyligiga erishish kabi masalalarga e'tibor qaratganligi yangi Renessans pedagogikasining ustuvor yo'nalishlari bilan hamohangdir.

Abdulla Avloniy 1913-yilda nashr ettirilgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir" deb, pedagogika faniga o'zbek ziyolilari orasida birinchi bo'lib, aniq va to'g'ri ta'rif bergen. Olimning fikricha, tarbiya orqali "vujud quvvatlanadi, fikr nurlanadi, axloq go'zallanadi, zehn ravshanlanadi". Shuning uchun u tarbiyani bola tug'ilgan kunidan boshlamoq kerakligini uqtiradi. Bolaga badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi berilib, uni yaxshi xulqlarga o'rgatib, ilmli qilmoq lozimligini alohida ta'kidlab o'tadi.

"Tug'ub tashlov ila bo'lmas bola, bo'lgay balo sizga, Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga", deb tarbiyaning inson hayotidagi o'rnini yuqori baholaydi va u o'z asarida tarbiyaning yo'llari, metod va vositalarini ham bayon etadi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, yangi Renessans pedagogikasining konseptual g'oyalari o'z ifodasi ni topgan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konseptsiyasi"ni amalga oshirishning birinchi bosqichi ham olimning qarashlari bilan hamohangdir: oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr - homila davri, ikkinchi davr - bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr).

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konseptsiyasi”da tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuv masalasi ilgari surilgan. Abdulla Avloniy esa, o’z davrida mazkur tushunchani “odat” atamasi orqali quyidagicha talqin qilgan: “Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi”.

Renessans pedagogikasining ustuvor yo’nalishi hisoblangan mahalla va oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari to’g’risida ham pedagog olimning qarashlari diqqatga sazovordir. Abdulla Avloniy ta’kidlab o’tganidek, “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qibiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo’lur. Qush uyasida ko’rganini qilur”.

Olimning valeologiya (sog’lom turmush tarzi) haqidagi qarashlari ham mutlaq haqiqat bo’lib, hech qanday izoh va tahlilga ehtiyoj sezmaydi: “Badanning salomat, quvvatli bo’lmog’i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o’qumoq, o’rganmoq va o’rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdir”. Olim o’z fikrini davom ettirib, poklikning shaxs intellektual va emotsiyal sohasiga ham ta’sir ko’rsatishiga doir aniq dalillarni keltirib o’tadi: “Poklik zehn-u idrokingni keng o’tkur qilur ...Poklik musulmonlig’ning ildizidur”.

Ma’lumki, jamiyatda sodir bo’layotgan voqeа-ho-disalarga nisbatan loqaydlik va beparvolikni yo’qotish hamda sog’lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish orqali fuqarolarda erkin tafakkur yuritish, daxldorlik tuyg’usi tarkib toptiriladi. Renessans pedagogikasi uchun xos sanogen ya’ni sog’lom fikrlashni rivojlantirish masalasi ham olimning e’tiboridan chetda qolmagan. Uning fikr tarbiyasi haqidagi qarashlari

zamonaviy pedagogik-psixologik fanlarda tafakkurning alohida turi sifatida e'tirof etilayotgan sanogen va patogen fikrlashga berilayotgan ta'riflarga har jihatdan mos keladi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlar ning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur..."

*Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar olmosdan bo'lur o'tkur,
Fikring oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur, benur".*

Abdulla Avloniyning ilm-ma'rifat va axloqqa doir qarashlari juda chuqur tahlil va talqinni talab etadi. Olimning pedagogik qarashlarini yaxlit tarzda o'zida aks ettirgan va muhtaram yurtboshimiz har bir maktab binosida yozib qo'yilishi shart ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan quyidagi g'oya esa, hech qachon o'z zalvori hamda ahamiyatini yo'qotmaydi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur".

4-§. "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARI TARBIYAGA Doir MUHIM MANBA SIFATIDA

Mashg'ulot vaqtisi - 2 soat	Talabalar soni: 20-30 nafargacha
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar
Mashg'ulot rejasи	<ol style="list-style-type: none"> 1. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini yaralish tarixi 2. Abdulla Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar. 3. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g'oyalilar.
Mashg'ulotining maqsadi: Talabalarning Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlariga doir bilimlarni mustahkamlash hamda "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g'oyalardan kelgusi pedagogik faoliyatida foydalanish ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.	
Pedagogik vazifalar: <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdulla Avloniyning hayoti va ijodiga doir bilimlarni tarkib toptirish. 2. Abdulla Avloniy tashkil etgan maktab va darsliklar mazmunini o'zlashtirish. 3. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g'oyalari ahamiyatini aniqlashtirish. 	O'quv faoliyati natijalari: <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdulla Avloniyning hayoti va pedagogik faoliyati, pedagogik fikrlari va asarlari haqidagi bilimlarga ega bo'lishadi 2. Abdulla Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar mazmunini o'zlashtirishadi. 3. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi komil inson tarbiyasi ga oid ilgari surilgan g'oyalari ahamiyatini bilib olishadi.
Ta'lim metod va usullari	Munozara, suhbat, blis-so'rov
Ta'limni tashkil etish shakli	Individual va kichik guruhlarda ishslash
Didaktik vositalar	Uslubiy qo'llanma, projektor, markerlar, targatma materiallar

Ta'lim tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat va baholash	Yozma (konspekt qilish) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; uch ballik shkala asosida baholash.

"Turkiy Guliston yoxud axloq" asari tarbiyaga doir muhim manba sifatida mavzusidagi seminar mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova).	Seminar topshiriqlari bilan tanishadilar, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
1. O'quv mashg'u-lotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi. (2-ilova) 1.2. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaga doir blis-so'rov o'tkazadi. (3-ilova)	Baholash mezonlarini bilib olishadi Savollarga javob beradilar.

2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlik asosida ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi (4-ilova).</p> <p>2.2. Guruhlarga FSMU metodi asosida topshiriqlar beriladi (5-ilova).</p> <p>2.3. Guruhlar Abdulla Avloniy tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya yo'nalishlari va vazifasiga izoh berishadi (6-ilova).</p> <p>2.4. Guruhlar Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan maktablar, asarlar, darsliklar va muharrirlik qilgan gazetalar bilan tanishib, guruhlarga ajratishadi (7-ilova).</p> <p>2.5. Guruhlar o'qituvchi tomonida berilgan multimediali keys topshirigini bajarishadi (8-ilova).</p> <p>2.6. Mustaqil ta'lim: 13-14-mustaqlil ta'lim asosida guruhlar o'ttasida krasvordlar yechiladi. (9-ilova)</p>	<p>Kichik guruhlarga bo'linadilar.</p> <p>FSMU Topshiriqlar bo'yicha ishlaydilar.</p> <p>Faol qatnashadilar jadvallarni to'ldiradilar.</p> <p>Guruhlar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajaradila. Multimediali keys topshirig'i bajariladi.</p> <p>Mustaqil ta'limga oid Karasvordlar bajaradilar.</p>
3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)	<p>3.1. Mashg'ulot yakunida mavzuga umumiy xulosa bildiradi va mustaqil ta'lim natijalari e'lon qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalar tomonidan to'plangan ballar e'lon qilinadi.</p> <p>3.3. Uyga vazifa "Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarning rivojlanishi" mavzusi beriladi (10-ilova)</p>	<p>Talabalar o'z natijalarini bilib olishadi.</p> <p>O'z ballarini daftarga yozib olishadi.</p> <p>Mavzu va rejalar ni yozib olishadi.</p>

1-ilova.

Mavzu: "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari tarbiyaga doir muhim manba sifatida

Reja:

1. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini yaralish tarixi.
2. Abdulla Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar.
3. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g'oyalar.

2-ilova.

Talabalarni baholash mezonlari:

1. Mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish
1 - ball
2. Kichik guruhlarda ishlash 2 ball
3. Mustaqil ta'lif topshirig'ini bajarish 1 ball

3-ilova.

1-Topshiriq: Abdulla Avloniy ta'limiy axloqiy qarashlari va hayoti-ijodiga doir blits-so'rov savollari.

1. Tohir Malikning "Qaldirg'och" qissasida qaysi qahramon Abdulla Avloniy timsolida gavdalantirilgan?
2. Abdulla Avloniy qaysi mahallada tavallud topgan?
3. Abdulla Avloniy necha yoshdan madrasada o'qishni boshlagan?
4. Abdulla Avloniy 1930-yilda qanday unvon bilan tadqirlangan
5. Abdulla Avloniyning eng dastlabki maqolasi qanday nom bilan nashr qilingan?

6. Abdulla Avloniy qachon va qayerda tug'ilgan?
7. Abdulla Avloniyning ijtimoiy kelib chiqishi qanday?
8. Abdulla Avloniy necha yoshidan boshlab she'r yoza boshlagan?
9. Shoir qanday gazetalar chop ettirgan va qaysi gazetalarda muharrir bo'lib ishlagan?
10. Abdulla Avloniy qachon professional teatr trup-pasini tuzgan va qanday nomlangan?
11. Abdulla Avloniy matbuotdan va teatrdan tush-gan mablag'larni nimaga sarf qilgan?
12. Abdulla Avloniy o'zi ochgan maktablarda qaysi fanlardan dars bergan?
13. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud ax-loq" asarining yaratilishi va uning asosiy g'oyalari ni-madan iborat?
14. Asar necha bob va bo'limdan iborat?
15. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda necha-ga bo'ladi?

4-illova.

2-Topshiriq:

MAXSUS BELGILAR	BELGILARNING MA'NOSI
✓	Mening bilganlarim
+	Men uchun yangilik
?	Meni o'ylantirib qo'ydi

Insert – belgi qo'yib o'qitish texnologiyasi bo'lib, o'quvchilarda matn bilan ishslash, mustaqil fikr bildirish va mushohada yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi (yangi mavzuni o'rganishda yaxshi samara beradi).

Bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar bilan, tanishib chiqqanlaridan so'ng matnda o'quvchi bilgan ma'lumotlar bo'lsa o'sha qatorga "√" belgisi, yangi fikrlar bo'lsa "+" belgisi, agar o'quvchi tushunmagan jumlalar aks etgan bo'lsa "?" belgisi qo'yishi topshiriq qilinadi. O'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning matnlari yig'ishtirib olinadi va ular uchun notanish, o'ylantirib qo'yan jumlalaga izoh beriladi.

Ajoyib o'yin. Bolalar bog'chasi tarbiyachisi o'z tarbiyalanuvchilari uchun ajoyib bir o'yin taklif qildi. O'yin qoidasi shunday edi: Har bir bola o'zi uchun kichkina savatcha olib, uni bir necha kartoshkalar bilan to'ldirishi kerak edi. Kartoshkalarning soni esa har bir bolaning o'zi yoqtirmaydigan, u bilan o'ynashni xohlamaydigan bolalar miqdoricha bo'lishi kerak edi. Bolalarga bog'cha tarbiyachisi kartoshkalarga o'zлari yoqtirmaydigan, o'ynashni xohlamaydigan bolalarning ismlarini ham yozib qo'yishni ta'kidlab o'tdi.

Ertasiga har bir bola o'z savatchasini o'zi yoqtirmaydigan bolalarning soniga qarab kartoshkalar bilan to'ldirib chiqdi. Kimdir beshta kartoshka, kimdir uchta, yana kimdir bitta kartoshka bilan savatchalarni to'ldirdi. Shundan so'ng guruh tarbiyachisi bolalarga qarab: "Bu savatchalarni bir hafta davomida o'zingiz bilan bilan olib yuring, bir hafta o'tib o'yin haqida yana gaplashamiz" dedi. Oradan ikki kun o'tmasdan bolalar tarbiyachiga kartoshkalar ayniy boshlaganini va yomon hid chiqaryotganidan va shu bilan birga uni har doim ko'tarib yurish og'irlilik qilayotganidan shikoyat qildilar. O'qituvchi o'yin bir haftadan keyin tamom bo'lishini, so'ngra ular bilan o'yin haqida gaplashishni ta'kidlab o'tdi.

Oradan bir hafta o'tdi, tarbiyalanuvchilar orziqib kutgan vaqt keldi. Guruh tarbiyachisi bolalardan: "Bir

hafta davomida nimani his qildinglar”, deb so’radi. Bolalar judayam qiyalghanlarini, kartoshkalarning og’irligini, hidi undan-da yomonroq ekanligi haqida tin-may gapirdilar, shikoyat ham qildilar. Shunda tarbiya-chi o’z o’quvchilariga qarab o’yinning haqiqati haqida shunday dedi: “Savatcha bu xuddi sizning yuragingiz, kartoshkalar esa siz yomon ko’rgan insonlarni yuragin-gizda saqlab yurishingizdir, siz qayerga bormang u siz bilan birga, agar siz shu bir haftagini kartoshkaning yomon hidiga chiday olamsangiz, qanday qilib boshqalar-ga nisbatan yillar davomida yuragingizda kek saqlab, ularni yomon ko’rib yuribsiz, bunga qanday chidab yu-ribisz!”

Esdan chiqarmang: har doim atrofdagilaringiz-ga nisabatan yaxshi muomilada bo’ling, ularni yahshi ko’ring, ularning yomon taraflaridan ko’ra yaxshi taraf-larini ko’ra bilishini o’rganing, yuragingizda ularga nis-batan yomonlik saqlamang, yaxshi ko’rish va hurmatda bo’lish eng katta baxtdir”.

Topshiriq. Diqqat bilan yuqorida keltirilgan mat-nni o’qib chiqing va Insert texnologiyasi asosida fikrla-ringizni umumlashtiring.

5- ilova.

1-Topshiriq: Kichik guruhlarning nomlanishi

- 1-guruh – “Jadidlar” guruhi.
- 2-guruh – “Ziyo” guruhi.
- 3-guruh – “Abdulla Avloniy” guruhi.
- 4-guruh – “Taraqqiy” guruhi.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari

1. Sherikingizni diqqat bilan tinglang.

2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
3. Agar yordam kerak bo'lsa, albatta, murojaat qiling.
4. Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta, yordam bering.
5. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

6-ilova.

2-Topshiriq: Kichik guruhlarda bajarish uchun taqdim etiladigan topshiriqlar

**"Agar kishi yoshligidan nafsi buzulib, tarbiyasiz
o'sdimi, Allohu akbar unday kishidan kutmoq
yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoq kabidur".
Mavzusidagi FSMU metodini o'tkazishga doir
ko'rsatmalar.**

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarda-
gi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish,
taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish,
xulosalash, shuningdek, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini
shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

O'qitivchi talabalarga mavzuga oid bo'lgan g'oya
yoki fikr taklif etadi, o'yash uchun uch daqiqa vaqt be-
radi.

Har bir talabaga FSMU texnologiyasining bosqich-
lari yozilgan qog'ozlar tarqatadi.

Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi ta-
labalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri
javoblar umumlashtiriladi.

Fikringizni bayonetning :	"Agar kishi yoshlidan nafsi buzulib, tarbiyasiz o'sdimi, Allohu akbar unday kishidan kutmoq yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoq kabidur".
Fikringizning bayoniga SABAB ko'rsatning:	
Fikringizni isbotlashga MISOL keltingiring	
Umumlashitiring	

7-illova.

3-Topshiriq: Abdulla Avloniy tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya yo'nalishlari va vazifasiga izoh bering

1. "Tarbiyaning zamoni" deganda qanday fikr ilgari surilgan?
2. "Badan tarbiyasi" deganda nima tushuniladi?
3. "Fikr tarbiyasi" deganda nima nazarda tutilgan?
4. "Axloq tarbiyasi" deganda nima tushuniladi?

"Tarbiyaning zamoni"	"Badan tarbiyasi"	"Fikr tarbiyasi"	"Axloq tarbiyasi"

8-illova.

4-Topshiriq: Quyida keltirilgan Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan maktablar, asarlar, dars-

liklar va muharrirlik qilgan gazetalar bilan tanishning va guruhlarga ajrating.

1. "Usuli savtiya".
2. "Xurshid".
3. "Birinchi muallim".
4. "Turkiy Guliston yoxud axloq".
5. "Advokatlik osonmi".
6. "Ikkinci muallim".
7. "Maktab gulistoni".
8. "Shuhrat".
9. "Pinak".
10. "Ikki sevgi".
11. "Biz va Siz".
12. "Sadoyi Turkiston".
13. "Portugaliya inqilobi".
14. "Vatan".
15. "Taraqqiy".

Maktablar	Asarlar	Darsliklar	Gazetalar

9-illova.

5-Topshiriq: Multimediali keys topshirig'i. "Baddanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli kasalsiz jasad lozimdur" ma'rifatparvar pedagogning qarashlarini o'zingizning fikrlaringiz asosida keltiring.

O'qituvchi savolni muhokama qilish uchun o'rta ga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa beradi.

Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham mazkur holatda hamma javoblar ning yozib borilishi talab etiladi. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarni tabalar bilan muhokama qiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

10-illova.

6-Topshiriq: "KEYS-STADI" inglizcha so'z bo'lib, (case – aniq vaziyat, stadi – o'qitish) aniq vaziyat va hodisaga asoslangan o'qitish demakdir. Mazkur metoddan ko'zlangan maqsad – sinfda aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda, muqobil yechimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

"Qum va tosh" hikoyasi

Hikoya qilishlaricha, bir kuni ikki do'st sahro bo'y lab yurib borishar ekan to'satdan, bir-birlari bilan bir masala to'grisida janjallahib qolishibdi. Shunda ikki o'rtoqdan biri ikkinchisining yuziga qo'li bilan shapaloq tushuribdi. Shapaloq yegan bola o'z do'stiga hech nima demay qumga: "Bugun birinchi marotaba mening do'stim yuzimga shapaloq tushurdi", deb yozib qo'yibdi. Ular yo'llarida davom etishibdi va bir vohaga yetib kelishibdi. Do'stlar kelishib, cho'milishga qaror qilishibdi. Shunda yuzidan kaltak yegan bola botqoqqa botib qolib, cho'ka boshlabdi. Lekin uni o'sha shapaloq tushirgan do'sti qutqarib qolibdi. Shunda botqoqdan qutilib qolgan do'st toshga katta harflar bilan: "Bugun eng yaqin do'stim sababchi bo'lib, mening hayotimni saqlab qoldi", deb yozib qo'yibdi.

Shunda do'stini o'z qo'llari bilan urgan bola o'r-tog'idan: "Men senga shapaloq tushirganimda sen qumga yozib qo'ygan eding, hozir esa nima sababdan botqoqdan qutqarib qolganimda toshga yozyapsan", deb so'rabdi. Shunda shapaloq yegan do'sti: "Agar bizni biror kim hafa qilsa yoki qalbimizga ozor bersa, biz uni qumga yozib qo'yishimiz kerak, xuddi shamol qumni o'chirib yuborgandek biz ham u odamni kechirishimiz kerak, agar kimdir bizga yaxshilik qilsa, toshga o'yilgan naqshdek yozib qo'yishimiz kerakki, uni hech nima o'chira olmasin!" deb javob beribdi.

Topshiriq. O'quv keysini tahlil qiling:

1. Ikki do'stning holatini baholang.
2. Sizningcha, ikki do'stning xatti-harakatlari qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?
3. Siz ularning o'rnida bo'lganiningizda qanday ish tutgan bo'lardingiz?

11- ilova.

7-Topshiriq: "Tushunchalar tahlili" uslubi.

O'quvchilarni belgilangan mavzu doirasida egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatish.

Topshiriq. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq"asari bo'yicha tayanch tushunchalarning mazmunini aytib bering.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI
Axloq	
Xulq	

Tarbiya	
Fatonat	
Dyonat	
Islomiyat	
Nazofat	
Sa'y-harakat	
Riyozat	
Shijoat	
Qanoat	
Ilm	
Sabr	
Hilm	
Intizom	
Vijdon	
Haqqonlyat	
Iffat	
Hayo	

12- ilova.

8-Topshiriq: "IMPLUS"

Kat metodi. Har bir belgilangan stol ustiga:

1. "Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida men erishdim".
2. "Men orttirgan bilimlarimni qo'llayman".
3. "Men to'g'risida ko'proq bilib olmoqchi edim".
4. "Men uchun murakkab bo'ldi".
5. "Mengayoqdi" jumlalardan iborat plakatlar qo'yiladi.

O'quvchilarga mavzu doirasida begilangan matn taqdim etiladi, o'quvchilar matn doirasida taqdim etilgan ma'lumotlarni o'rganib chiqib, plakatlarni to'ldi-

rib chiqishlari kerak bo'ladi. Jarayon davomida past ovozda yoqimli musiqa yangrab tursa yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Taxminan 15 daqiqadan so'ng plakatlar ilib qo'yiladi. Fikrlar eshittirib o'qiladi hamda aniqlashtiruvchi savollar beriladi. O'quvchilar o'z fikrlarining ostiga ismlarini yozish yoki anonim bo'lib qolishni o'zları hal qiladilar.

Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridan berilgan quyidagi fikrlar bilan tanishing:

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyot, ya'ni sezuv – tuymaqdan iborat ma'naviy quvvatni aytilar. Biz har vaqt af'ol va harakotimizni yaxshi va yomonlig'ini, foyda va zararlig'ini onjaq vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarazu ila o'z kamchiliklarini o'lchab bilmak ila barobar boshqalarning ham af'ol va harakotini sezur. Agar ishlagan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur. Biz janobi Haqning amr va nahiyni fikr va ruhimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz ila ayira bilurmiz. Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o'ldig'indan vijdon sohiblari har bir ishni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo'lur. Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida niyat va amallarida, do'st va oshnoliqlarida yashirin bir g'arazlari o'ldig'indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobig'a giriftor bo'lurlar. Har bir insonning haqiqiy foli vijdonidur, mevasi yaxshi amaldur, hosili vijdonidur. Inson diniy vazifalarining uluvviyatini vijdoni soyasida taqdir qila bilur. Chunki, vijdoni salomat kishilar imon va e'tiqodlarini kamolga yetkurmak uchun janobi Haqning

buyruqlarini din va millatg'a foydali ishlarni shod va xurramlik ila ishlar. Alhosil, vijdon har kimning af'ol va harakotini ko'rsatadurgan musaffo bir oyinadurki, bu ko'zguga chin nazar qilg'an kishi o'z ayb va kamchiliklарini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va quşurlarini axtarmoqg'a vaqtি bo'lmas. Bizim islomiyatda vijdon axloqining islohi uchun sa'y-harakat qilmak lozim o'ldig'indan shul doirada harakat qilg'on kishilar ikki jahonda aziz va mukarram bo'lurlar.

Topshiriq: Matnni o'qib chiqing. Vijdon inson hayotidagi ahamiyatini tushungan holda, matnni tahlil etib Impuls-plakatni to'ldiring.

**ABDULLA AVLONIYNING “BIRINCHI MUALLIM” VA
“IKKINCHI MUALLIM” KITOBLARI YUZASIDAN
MUSTAQIL TA’LIMNI BAJARISH BO’YICHA O’QUV
LOYIHAVIY DASTUR**

1-jadval

Loyiha turi	Loyiha maqsadi	Loyiha mahsuli	Talabalarning faoliyat mahsuli	Shakllanti rilishi ko’zda tutilgan komponentlik
Amaliy yo’naltirilgan	Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va “Ikkinch muallim” kitoblarini o’rganish, tahlil qilish, bilim, ko’nikma, malakalarni oshirish	Metodik tavsiyalar, mavzu yuzasidan taqdimot materi-allarini tayyorlash	amaliy	Faoliyatga doir

**Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va
“Ikkinch muallim” kitoblari yuzasidan mustaqil
ta’limni bajarish bo’yicha o’quv loyihasini
ishlab chiqish va himoyasini tashkil
etish texnologiyasi**

Maqsad:

1. Talabalarning pedagogik tafakkurini kengaytirish, Abdulla Avloniy asarlarini o’qishga qiziqish hosil qilish;

2. Adabiyotlar bilan ishlash malakalarini rivojlan-tirish;
3. Talabalarni intellektual faoliyatga jalb etish;
4. Nutqiy, taqdimot qilishga mo'ljallangan ko'nik-malarini rag'batlantirish

Faoliyatni tashkil etish bosqichlari:

1. Talabalar tomonidan belgilangan adabiyotlar bo'yicha mavzu tanlash, tanlangan mavzu boshqa talabalar mavzusi bilan o'xshash bo'lmasligi
2. Tanlangan mavzular bo'yicha o'qituvchining manbalar ro'yhatini shakllantirishi va individual ravishda taqdim etilishi
3. Belgilangan mavzu bo'yicha loyihani bajarishda har bir talabaning individual ish rejasini tuzishi va uni bajarish muddatlarini aniq ko'rsatilishini nazoratga olinishi
4. Loyihaviy faoliyatning to'rtinchi bosqichi ishni bajarish hisoblanadi. Mazkur jarayonda talabaning topshiriq yuzasidan mustaqil ishlashi, tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yishi va bunda uning ijodkorligi ku-zatuvga olinadi, bunda talabalardan yuqori darajadagi faollik talab etiladi.
5. Himoya bosqichi bu – loyihaviy faoliyatning asosiy maqsadlaridan biridir.

Bunda bajarilgan barcha tadqiqot faoliyati, ishni bajarishdagi mustaqillik, intellektuallik va ijodkorlik baholanadi.

Loyihani bajarish ikki bosqichda amalga osha-di:

- 1) ishni o'zini yozish;
- 2) loyihani rasmiylashtirish.

Loyiha ishi himoyasini baholashda quyidagi mezon va ballarga asoslanadi:

- Mini qo'llanma va slayd-prezintatsiya (animation audio yoki videorolikni) mavjudligi va belgilangan talablarga javob berishi – 1 ball;
- Mavzu mazmunini olib berish (to'liqligi, aniqligi) – 3 ball;
- Qo'shimcha savollarga javob berish – 1 ball.

Ekspertlar tomonidan qo'yilgan ball (baho) umumiyligi jamlanadi va uchga bo'linadi. O'rtacha ball (baho) yakuniy nazorat qayd varag'iga qo'yiladi.

O'quv loyihasini amalga oshirish bosqichlari

2-jadval

Loyihani bajarish bosqichlari	Izlanishga doir	Tashkiliy	Tex-nologik	Yakuniy
Talaba faoliyati	Mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va muhokama qilish Mavzu yuzasidan faoliyat maqsadini belgilash Reja ishlab chiqish. Tadqiqot o'tkazish	Ma'lumotlar bilan ishlash Adabiyotlarda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish Berilgan tarbiyaviy ahamiyatiga molik g'oyalarga munosabat bildirish va baholash	Zarur tayyor-garlikni amalaga oshirish Mavzu yuzasidan taqdimot tayyor-lash Taqdimot sifatini nazorat-ga olish	Taqdim etayotgan loyihaning natijalarini tahlil qilish Taqdimotni himoyaga tayyorlash Taqdimotni himoya qilish

O'qituvchi faoliyati	Loyiha maqsadini tushin-tirish Muhokama qilish	Talabalarni faollashtirish G'oyalarini shakllanti-rishga ko'mak-lashish	Texnik vositalar bilan ta'min-lash Talabalar faoliyatini bosh-qarish	Taqdimot va himoya jarayonlarini tashkil etish Loyihani tahlil qilish va baholash
Ta'lif berish shakli va metodi	Suhbat Maslahat Adabiyotlar bilan ishlash	Fikr almashish Aqliy hujum Qiyosiy tahlil	Namoyish etish Tushintirish	Multimediya, Videorolik, Tadqimotlar

Loyihani bajarish bo'yicha individual ish rejasi na'munasi

3-jadval

Bosqichlari	Faoliyat turlari	Muddati		O'qituvchi (Tyutor) imzosi
		Reja	Amalda	
Tayyorlov	O'quv loyihasining mavzusini tanlash Loyiha doirasida ko'rib chiqiladigan asosiy muammoli masalalarni aniqlash			
Rejalash-tirish	Loyiha vazifalarini aniqlashtirish Vazifalarga yechim topish uchun metod va vositalarни aniqlash Ishni bajarishning ketma-ketligi, bosqichlari va muddatini belgilash			
Loyihani boshqarish	Loyihani mustaqil bajarish			
Rasmiy-lashtirish	Loyiha natijalari asosida mini qo'llanma ishlab chiqish Slayd-prezintatsiya qilish			
Himoya	Loyihani himoya qilish			

ASSESMENT TOPSHIRIQLARI

ASSISMENTLAR

©

1

TEST Axloq ilmidan saboq beruvchi, "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari qachon yozilgan? A. 1913-yil B. 1917-yil C. 1924-yil D. 1927-yil	VAZIYATLI MASALA Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir"-deydi. Vaziyatni tahlil qiling: <ol style="list-style-type: none"> 1. Sog'lom fikr deganda nimani tushinasiz? 2. Sizningcha "badanni tarbiya qilish" deganda adib nimalarni nazarda tutgan? 3. Salomatlik inson faoliyatida va hayotida qanchalar ahamiyatli deb hisoblaysiz? 4. Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlariga mutanosib bo'lgan o'zbek xalq maqolidan misol keltiring.
BLITS TOPSHIRIQ Axloq-odobga oid 10 ta maqolni yozing.	AMALIY KO'NIKMA Fikringizni bayon eting: "Agar kishi yoshligidan nafsi buzulib, tarbiyasiz o'sdimi, Allohu akbar unday kishidan kutmoq yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoq kabidur". Fikringizning bayoniga SABAB ko'rsating. Fikringizni isbotlashga MISOL keltiring. Umumlashitiring.

TEST

Abdulla Avloniy necha misradan ortiq she'rlar ijod qilgan?

- A. 4000
- B. 6700
- C. 3200
- D. 3000

VAZIYATLI MASALA

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib "Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, Allohu akbar, bunday kishilar dan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabitur", degan.

Topshiriq.

Tahlil qiling! Adib quyidagi fikrlari orqali qanday pedagogik g'o yani ilgari surmoqda?

Bola tarbiyasida eng avvalo nimalarga e'tiborli bo'lish kerak deb o'ylaysiz? Kichik esse yozing.

BLITS TOPSHIRIQ

Insonni kamolotga yetaklovchi yaxshi hislatlar:

1. ilmlilik
2. adolatlilik
3.
4.
5.

Fikringizni tezkorlikda bayon eting.

TUSHUNCHALAR TAHLILI

"Talim" va "Tarbiya" tushunchalarining o'zaro farqini quyidagi jadval asosida aniqlashtiring

Ta'lim	Tarbiya

TEST	VAZIYATLI MASALA																																																		
<p>Tohir Malikning "Qaldirg'och" qissasida qaysi qahramoni Abdulla Avloniy timsolidan gavdalantirilgan?</p> <p>A. Asadullo Mir'alam B. Mir'azam Asad C. Asadgulqun Rahmonali D. Siyovpush Nurzoda</p>	<p>Abdulla Avloniy ta'kidlab o'tganidek, "Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar".</p> <p>Topshiriq. Tahsil qiling! Adib quyidagi fikrlari orqali qanday pedagogik g'oyani ilgari surmoqda?</p> <p>"Qush uyasida ko'rganini qilur" deganda adib nimalarni nazarda tutgan?</p> <p>Bola tarbiyasida eng avvalo nimalarga e'tiborli bo'lish kerak deb o'ylaysiz? Kichik esse yozing.</p>																																																		
BLITS TOPSHIRIQ	AMALIY KO'NIKMA																																																		
<p>Quyida keltirilgan Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan maktablar, asarlar, darsliklar va muharrirlik qilgan gazetalar bilan tanishing va guruhlarga ajrating.</p> <p>1. "Usuli savtiya". 2. "Xurshid". 3. "Birinchi muallim". 4. "Turkiy guliston yoxud axloq". 5. "Advokatlik osomni". 6. "Ikkinchi muallim". 7. "Maktab gulistoni". 8. "Shuhrat". 9. "Pinak". 10. "Ikki sevgi". 11. "Biz va Siz". 12. "Sadoyi Turkiston". 13. "Portugaliya inqilobi". 14. "Vatan". 15. "Taraqqiy".</p> <table border="1"> <tr> <td>Maktab</td> <td></td> </tr> <tr> <td>Asarlar</td> <td></td> </tr> <tr> <td>Darslik</td> <td></td> </tr> <tr> <td>Gazeta</td> <td></td> </tr> </table>	Maktab		Asarlar		Darslik		Gazeta		<p>Quyidagi kasrlarni o'sish tartibida joylashtiring:</p> <table border="1"> <tr> <td>23</td> <td>18</td> <td>2</td> <td>14</td> <td>6</td> <td>16</td> <td>30</td> </tr> <tr> <td>— 50</td> <td>— 50</td> <td>— 50</td> <td>— 50</td> <td>— 50</td> <td>— 50</td> <td>— 50</td> </tr> <tr> <td>I</td> <td>L</td> <td>XA</td> <td>SH</td> <td>X</td> <td>I</td> <td>K</td> </tr> </table> <p>Quyidagi kasrlarni kamayish tartibida joylashtiring:</p> <table border="1"> <tr> <td>59</td> <td>14</td> <td>36</td> <td>53</td> <td>9</td> <td>76</td> <td>3</td> </tr> <tr> <td>— 100</td> <td>— 100</td> <td>— 100</td> <td>— 100</td> <td>— 100</td> <td>— 100</td> <td>— 100</td> </tr> <tr> <td>O'</td> <td>L</td> <td>R</td> <td>G'</td> <td>I</td> <td>T</td> <td>K</td> </tr> </table> <p>Topilgan so'zlar inson hayotida qay darajada ahamiyatlidir?</p>	23	18	2	14	6	16	30	— 50	I	L	XA	SH	X	I	K	59	14	36	53	9	76	3	— 100	O'	L	R	G'	I	T	K												
Maktab																																																			
Asarlar																																																			
Darslik																																																			
Gazeta																																																			
23	18	2	14	6	16	30																																													
— 50	— 50	— 50	— 50	— 50	— 50	— 50																																													
I	L	XA	SH	X	I	K																																													
59	14	36	53	9	76	3																																													
— 100	— 100	— 100	— 100	— 100	— 100	— 100																																													
O'	L	R	G'	I	T	K																																													

ASSISMENTLAR	©	4
TEST 1. Abdulla Avloniyning qaysi asar boshlang'ich maktablarning o'quvchilariiga mo'ljallangan? A. "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom" B. "Birinchi muallim" C. "Ikkinchi muallim" D. "Turkiy Guliston yo-xud axloq"	VAZIYATLI MASALA Abdulla Avloniy "Tug'ub tashlov ila bo'lmas bola, bo'lgay balo sizga, vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga" deya ta'kidlagan. Vaziyatni tahlil qiling: 1. Abdulla Avloniy mazkur fiklari orqali tarbiyani inson hayotidagi o'rnnini qanday baholaydi? 2. Bola rivojida tarbiya elementlarini qanday qo'llash ma'qul deb hisoblaysiz? 3. Mazkur fikrga muvofiq keluvchi o'zbek xalq maqollaridan birini aytинг	
TUSHUNCHALAR TAHLILI "Axloq" va "Odob" tushunchalarining o'zaro farqini quyidagi jadval asosida aniqlashtiring	AMALIY KO'NIKMA Ro'yxatni diqqat bilan o'qib chiqib, shular ichidan shaxsni kamolotga boshlovchi eng asosiy 5 omilni piramida shakliga joylashtiring: <ul style="list-style-type: none"> — Sabrlilik — Ilmlilik — Iymonlilik — Zehnlilik — Mehnatkashlik — Muloqotchanlik — O'z ustida tinimsiz ishlash — Bugungi ishni ertaga qoldirmaslik — Tartiblilik — Rostgo'ylik — Teran fikrlilik 	
AXLOQ	ODOB	
ASSISMENTLAR	©	5

TEST

1. Abdulla Avloniy
“..... – insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur”deydi.
Nuqtalar o'rniga munosibini toping.
- A. Madaniyat
B. Ilm
C. Kitob
D. Ilymon

VAZIYATLI MASALA

Abdulla Avloniy ta'kidlab o'tganidek, “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qibiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar”.

Topshiriq. Tahlil qiling!

1. Adib quyidagi fikrlari orqali qanday pedagogik g'oyani ilgari surmoqda?
2. “Qush uyasida ko'rganini qilur”deganda adib nimalarni nazarda tutgan?
3. Bola tarbiyasida eng avvalo nimalarga e'tiborli bo'lish kerak deb o'ylaysiz?
4. Kichik esse yozing.

TEST SAVOLLARI:

1. *Tohir Malikning "Qaldirg'och" qissasida qaysi qahramoni Abdulla Avloniy timsolida gavdalantirilgan?*
A. Asadullo Mir'alam
B. Mir'azam Asad
C. Asadgulqun Rahmonali
D. Siyovpush Nurzoda

2. *Abdulla Avloniy qaysi mahallada tavallud topgan?*
A. Mergancha mahallasida
B. Hunarmandlar mahallasida
C. Kosiblar mahallasida
D. Duradgorlar mahallasida

3. *Abdulla Avloniy necha yoshdan madrasada o'qishni boshlagan?*
A. 12 yoshdan
B. 15 yoshdan
C. 8 yoshdan
D. 11 yoshdan

4. *Abdulla Avloniyning xalqni ma'rifatga tashviq qilganidan dalolat beruvchi misralaridagi tushirib qoldirilgan so'zni toping.*
.....ila aqling-la ayur yaxshi-yomonni,
Behudaga sarf etma, shu qimmatli zamonni.
Sa'y et, jadal et, ilm-u fununa harakat qil,
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni.
A. Idrok
B. Ilm
C. Kitob
D. Ilymon

5. Abdulla Avloniy 1930-yilda qanday unvon bilan tadqirlangan?

- A. "O'zbekiston maorifi zarbdori" unvoni
- B. "Mehnat qahramoni" unvoni
- C. "Do'stlik" ordeni
- D. "Shuhrat" ordeni

6. Abdulla Avloniyning eng dastlabki maqolasi qanday nom bilan nashr qilingan?

- A. "Hijron"
- B. "Yangi usul maktablarin ilmi"
- C. "Jamiyati hayriya"
- D. "Ilmni o'rganmoq va ulashmoq darkor"

7. Abdulla Avloniy 1904-yilda nimaga asos solgan?

- A. Toshkent shahrining Mirobod tumanida jadid maktabini tashkil etilgan
- B. "Jamiyati xayriya" uyushmasini tashkil etgan
- C. "Shuhrat", "Osiyo" nomli yangi gazetalar chiqara boshlagan
- D. Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida yangi usul maktabini tashkil etilgan

8. Abdulla Avloniy "... – insoniyatni ma'rifat dun-yosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur" deydi. Nuqtalar o'rniga munosibini toping.

- A. Madaniyat
- B. Ilm
- C. Kitob
- D. Ilymon

9. Abdulla Avloniy o'zining "...bir yoqdan milliy islohot uchun maskura hozirlag'on, ikkinchi yoqdan el

orasiga o'zgarish tuxmini sochg'on" ham Abdulla Avloniy bo'ldi" degan so'zlari orqali nimaga baho beradi?

- A. "Shuhrat" nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan
- B. Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida yangi usul maktabini faoliyatiga baho bergen
- C. "Jamiyati xayriya" uyushmasi faoliyatini baholagan
- D. "Osiyo" nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan

10. Abdulla Avloniy "Turon" (1917) gazetasiga qanday shiorni ustun deb bilgan?

- A. "Yashasin xalq jumhuriyati" degan shiorni tanlagan
- B. "Turkiy Guliston yoxud axloq" degan shiorni tanlagan
- C. "Idrok ila aqling-la ayur yaxshi-yomonni, Behudaga sarf etma, shu qimmatli zamonni" degan shiorni tanlagan
- D. "Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamat, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalsidur" degan shiorni tanlagan

11. Abdulla Avloniyning taxalluslari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- 1. "Hijron"
 - 2. "Nobil"
 - 3. "Indamas"
 - 4. "Shuhrat"
 - 5. "Surayyo"
 - 6. "Shapaloq"
 - 7. "Chol"
 - 8. "Ab"
 - 9. "Chegiboy"
 - 10. "Chog'bon"
 - 11. "Xaq"
 - 12. "Avloniy"
- A. 1; 2; 3; 4; 5; 6
 - B. 2; 5; 6; 8; 12
 - C. 1; 3; 7; 9; 10
 - D. 2; 4; 7; 11; 12

12. Abdulla Avloniy 1913-yilda birinchilardan bo'lib nimaga asos solgan?

- A. "Turon" nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi
- B. "Jamiyati xayriya" uyushmasini tashkil etgan
- C. "Shuhrat", "Osiyo" nomli yangi gazetalar chiqara boshlagan
- D. Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida yangi usul maktabini tashkil etilgan

13. Abdulla Avloniy "Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz bog'lidur", deydi. Nuqtalar o'rniga munosibini toping.

- A. Ilmga
- B. Ma'naviyatga
- C. Iymonga
- D. Adolatga

14. 1916-yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo tomonidan qo'yilgan "Layli va Majnun" spektakilida Abdulla Avloniy qanday ro'lni ijro etadi?

- A. Qaysning otasi
- B. Qays rolini
- C. Mir'azam Asad
- D. Majnun do'stini

15. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda necha bo'limga ajratadi:

- A. 4 bo'limga
- B. 6 bo'limga
- C. 3 bo'limga
- D. 2 bo'limga

16. Abdulla Avloniy 1924-yilda qayerda ilmiy-tad-qiqot ishlarini olib brogan?

- A. O'rta Osiyo davlat universitetida (SAGU)
- B. Afg'onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida
- C. Xalq maorif institutida,
- D. Turkfront harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) da

17. Abdulla Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vakillaridan kimlarni asalarlarini tarjima qilgan?

- A. I.A.Krilov va L.N.Tolstoyning asarlarini
- B. I.A.Krilov va A.S.Pushkinning asarlarini
- C. A.S.Pushkin va L.N.Tolstoyning asarlarini
- D. A.S.Pushkin va M.Lermontovning asarlarini

18. Abdulla Avloniy qalamiga mansub bo'lgan mazkur fikni tugallang. "Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatulg'on oynai hayoti –"

- A. Til va adabiyotdir
- B. Ilm va ma'naviyatdir
- C. Teatr va san'atdir
- D. Kitob va madaniyatdir

19. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida nechta illatni bayon etgan?

- A. 20 ta
- B. 30 ta
- C. 24 ta
- D. 13 ta

20. I.A.Krilovning 21ta masala Abdulla Avloniyning qaysi kitobida nashrdan chiqqan?

- A. "Maktab gulistoni" kitobida
 - B. "Ikkinci muallim"
 - C. "Turkiy Guliston yoxud axloq"
 - D. "Gulistoni maktab"
21. Abdulla Avloniy 1925-yilda qanday unvon bilan tadqirlangan?
- A. "Mehnat qahramoni"
 - B. "Millat qahramoni"
 - C. "Do'stlik" ordeni
 - D. "Shuhrat" ordeni
22. Abdulla Avloniy o'z tarjimayi holida necha yoshida Shayxantavurdagi Abdulmalikboy dahasiga kelib, Mullo Umar Oxunddan dars olganini ma'lum qilgan?
- A. 14 yoshida
 - B. 12 yoshida
 - C. 8 yoshida
 - D. 10 yoshida
23. Abdulla Avloniy "Usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat darslik va o'qish kitoblarini yaratg'an?
- A. 4 qismdan iborat
 - B. 6 qismdan iborat
 - C. 3 qismdan iborat
 - D. 5 qismdan iborat
24. Abdulla Avloniy "Birinchi muallim" kitobini yozishda qaysi manbaga fundamental asos sifatida tayanaadi?
- A. Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval"
 - B. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"
 - C. Kaykovusning "Qobusnoma"
 - D. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"

25. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda qanday bo'limlarga ajratadi: 1. "Tarbiyaning zamoni". 2. "Badan tarbiyasi". 3. "Fikr tarbiyasi". 4. "Axloq tarbiyasi" 5. "Jamoat tarbiyasi" 6. "Nutq tarbiyasi"

- A. 1; 2; 3; 4;
- B. 1; 2; 5; 6;
- C. 2; 3; 4; 5;
- D. 3; 4; 5; 6;

26. Abdulla Avloniy "..... – dunyoning izzati, oxirating sharofatidur", deydi. Nuqtalar o'rniغا munosibini toping.

- A. Ilm
- B. Kitob
- C. Ilymon
- D. Adolat

27. Quyidagi berilgan javoblar orasidan Abdulla Avloniy ijro etgan rollarni ko'rsating

- A. Fayziboy ("Baxtsiz kuyov"), Aliboy ("To'y")
- B. Boy ("Padarkush"), To'xtasin ("Man o'lmisham")
- C. Rizamat ("Xo'r-xo'r"), Yolchi ("Jaholat")
- D. Kimsanboy ("O'liklar"), Qaysning otasi ("Layli va Majnun")

28. "Abdulla Avloniy asl nusxanining mazmunini, badiy nafosati, chiroyli obrazlarini to'g'ri talqin qilib, ehtiros bilan tarjima etgan" quyidagi fikr muallifi to'g'ri ko'rsa-tilgan qatorni toping.

- A. J.Sharipov
- B. B.Qosimov
- C. M.Bedil
- D. U.Dolimov

29. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining "Yaxshi xulqlar" deb nomlangan birinchi qismida nechta fazilatni bayon etgan?

- E. 31 ta
- F. 30 ta
- G. 24 ta
- H. 13 ta

30. Abdulla Avloniyning qaysi asar boshlang'ich maktablarning o'quvchilariga mo'ljallangan?

- A. "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom"
- B. "Birinchi muallim"
- C. "Ikkinchi muallim"
- D. "Turkiy Guliston yoxud axloq"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Sh.M.Mirziyayev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz./Toshkent – 2017, "O'zbekiston", 593 b
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. 2-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. 2-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
4. Normamatov S. Abdulla Avloniyning til va nutq madaniyatiga oid qarashlari.J/O'zbek tili va adabiyoti. 2004, №4. –B.107-109.
5. Avloniy A. Adabiyot yoxud milliy she'rlar, ifodai maxsus. 1-juz, 1-tab'. –Toshkent, 2006. 82-83-b.
6. Avloniy A. Adabiyot yoxud milliy she'rlar. 1-juz. 1-tab'i –Toshkent, 1909. 1-2-b.
7. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, Ma'naviyat. 2006. 54
8. Boboxonov A., Maxsumov M. Abdulla Avloniy pedagogik faoliyati. O'qituvchi, -Toshkent. 1966, 43
9. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – Toshkent, 137–138-b.
10. Normamatov S. Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining ma'noviy-uslubiy xususiyatlari. Filol.fan. nomz. diss.avtoreferati. – Toshkent, 2011. –B.26
11. Abdulla Avloniy. Toshkent tonggi. Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov. – Toshkent. 1979. 299-b; Normamatov S. Abdulla Avloniyning til va nutq madaniyatiga oid qarashlari.J/O'zbek tili va adabiyoti. 2004, №4. –B.107-109.
12. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan – Toshkent, O'zbekiston, 1994 – 18-b.

13. Boboxonov A., Maxsumov M. Abdulla Avloniy pedagogik faoliyati. O'qituvchi, – Toshkent. 1966, 43-b.
14. R.Barakaev. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T. Adabiyot nashriyoti, 1998 y, 134 b
15. Qosimov B, Dolimov U. Sharafli hayot. T., G.G'ulom nashriyoti, 1987 120
16. X.Avlonova "Dadam haqida". T. O'qituvchi, 1986. 78 b.
17. U. Dolimov. O'zbek milliy pedagogikasi. - T: Cho'lpon nashriyoti, 2013.
18. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
19. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.
20. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. – 101 b.
21. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollar (zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari). – T.: OO'MKHTRM, 2014. – 300 b.
22. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 206 b.
23. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: ped.fan.dok. ...diss. – T., 2017. – 314 b.
24. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat, 2007. – 240 b.
25. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: tarbiya kitobi. – T.: Ma'naviyat, 2014.

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
1-§. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari.....	6
2-§. Abdulla Avloniyning o'zbek xalqining milliy madaniyatini rivojlantirish borasida amalga oshirgan ishlari.....	17
3-§. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.....	20
4-§. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari tarbiyaga doir muhim manba sifatida	26
5-§. Asesment topshiriqlari.....	46
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	59

Ilmiy nashr

BEGZOD XODJAYEV
NILUFAR MATKARIMOVA

**ABDULLA AVLONIYNING HAYOTI VA
IJODINI O'RGANISH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

*Bosh muharrir: Shodi Otamurod
Musahhhih: Sardor Tolliboyev
Texnik muharrir: Ahmad To'ra
Badiiy muharrir: G'iyosiddin O'narov*

“IJOD NASHR”
Nashriyot litsenziyası AA № 0050.
Toshkent sh. Yunusobod tumani, Sohibkor ko'chasi 1-uy
Berilgan vaqtı 15.06.2020
+99897 765-56-86

Bosishga 2021-yil 20-martda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1/16. Ofset bosma. Cambria garniturası.
Bosma tabog'i 4. Adadi 100 nusxa.
“IJOD STUDIO” MCHJ
matbaa bo'limida chop qilindi.



ISBN: 978-9943-6560-3-1

A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 656031